

Vetnamlik seleksionerlar bilan Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimlari tajriba almashishdi

Xorazm Ma'mun akademiyasi eksperimental bazasida vietnamlik seleksioner va Sholichilik ilmiy tekshirish instituti hamda Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy xodimlari birgalikda sholini chatishtirish bo'yicha tajriba almashishdi.



Yangi genetik jihatdan kuchli, serhosil duragaylarni yaratishda geografik uzoq formalarni chatishtirish maqsadga muvofiq ekanligi mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tildi. Shu sababli Vietnam seleksiyasiga mansub navlar bilan yurtimiz seleksioner olimlari tomonidan yaratilgan sholi navlari chatishtirish uchun tanlab olindi.